TILNING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Xoldorova Zuxra Faxriddinovna
JDPU Tarix fakulteti Milliy
g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Annotasiya : Mazkur maqolada tilning inson va jamiyat hayotidagi tutgan o‘rni haqida to‘xtalgan. O‘zbek tilining boshqa dunyo tillari orasidagi o‘rni va mavqeyi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Tamoyil, til, inson,jamiyat, millat, ma`naviyat,adabiyot,o`zbek tili, davlat tili ,ona tili.

Kirish.Til millatning qalbi,uning dunyoda mavjudligining asosiy belgisidir. Til bor millat bor. Til yo‘q millat yo‘q. Til millatimizning bosh belgisidir.Tilni asrash, rivojlantirish, millatning yuksalishi demakdir. Xalqning Vatani, davlati kabi yana bir buyuk, ehtimolki, birlamchi boyligi bor.Bu uning til,aynan, til odamlar guruhini bir millat sifatida biriktiradi, yani millatni millat xalqni xalq qiladi . Til yashasa adabiyot ham millat ham yashaydi. Shuning uchun ham til adabiyotni yashnatadigan millatning ruhiy boyligini oshiradigan ijtimoiy hodisadir. O‘zbek tilining shakllanib, rivoj topishida ulug‘ mutafakkir A.Navoiyning xizmatlari katta bo‘lgan. Aynan Navoiy asarlari orqali ona tilimizga bo‘lgan mehr -muhabbatimiz oshdi. A.Navoiy o‘z asarlarida tilimizning samolar qadar yuksak qudratga ega ekanligini, uning boshqa tillardan kam joyi yo‘qligini, aksincha , uning o‘ziga xos jozibasi borligini XXasr boshlariga kelib ma’rifatparvar adib Abdulla Qodiriy o‘zbek tilini kamsitgan kishilarga qarata bunday javob qildi : "O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar. Yaratganning hukmi bilan dunyoga ma’lum mashhur bo‘lgan har qanday til borki, unda xalqning tarixi buguni va ertasi mujassamlashgan bo‘ladi. Onadek mo‘tabar o‘zbek tilimiz ham e’zoz-u ehtiromga loyiq. Bugungi ozodlik zamonida, tilimizning qonuniy himoyasi qayta tiklangan davrda, o‘zbek tili butun bo‘y basti bilan keng quloch yoymoqda. O‘zbek tili xalqimizning mustaqilligi va milliy o‘ziga xosligini ifodalab turuvchi bebaho ma’naviy xazinadir. 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi mustaqillik sari tashlangan ilk qadam bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida o‘zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi ta’siri va nufuzini oshirish eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ta’kidladi .Istiqlol yillarida o`zbek tilimiz tom ma`noda davlat tili maqomiga erishib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod ,farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.O`zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasida mamlakatda davlat tili o`zbek tilidir deb qa’tiy belgilab qo`yilgan.Aynan mazkur konsitutsiyaviy tamoyilning amalda ta’minlanayotganini so`nggi yillarida qabul qilingan qonun hujjatlari misolida ham yaqqol ko`rish mumkin.Xususan bu borada davlat va hukumat tomonidan qator amaliy say harakatlar qilinmoqda.Jumladan, O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni , shuningdek O`zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasining davlat haqida”gi Qonuniga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risidagi qarori va shu kabilar fikrimizning yorqin dalilidir. Bu borada o‘zbek tili, shubhasiz,

dunyo tillari ichida so‘zlarga boyligi, o‘ziga xosligi, asrlar osha sayqal topib borayotgani bilan alohida ajralib turadi. E’tiborlisi, milliy zabonimizda so‘zlashuvchilar soni tobora oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Yurtimizda o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tibor keyingi yillarda yanada kuchaydi. Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda O‘zbek tili bayrami kuni keng nishonlanadigan bo‘ldi. Xullas, O`zbek tiliga berilayotgan e`tibor har kungidanda oshdi.O`zbek tilining mavqeyini yuksaltirish o`sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik,milliy an`an ava qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiayalsh, mamalakatimizda davlat tilini to`laqonli joriy etishni taminlash maqsadida qabul qilingan O`zbekiaton Reapublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o`zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risidagi” PF-6084 –son Farmoni bilan 2020-2030-yillarda o`zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi, 2020-2030-yillarda o`zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi, 2020-2030-yillarda o`zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo`nalishlari tasdiqlandi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki,tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bn teng hisoblanadi .Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati uning tilida o`z ifodasini topadi. Til – millar ko`zgusi deb bejiz aytilmagan.Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko`hna va serqirra madaniyati o`zbek tili ta`sirida shakllangan. Ulug` shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan.Biz shu ona tilimizni asrab avaylashimiz, uning nufuzni oshirishimiz, go`zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o`z hissamizni qo`shmog`imiz darkor.Agar biz o`z ona tilimizning ko`rkamligi boyligini tarannum etsak,millatimiz yanada charag`on bo`ladi deb o`ylayman.Zero rus tarixchsi Shobolev aytganidek, “Millatni yo`q qilish uchun u yerga qurol ko`tarib borish shartmas, uning tilini. ma’naviyatini, adabiyotini yo`q qilish kerak, shunda millatning o`zi yo`q bo`lib ketadi” degan fikrlari naqadar to`g`ri ekanligini ko`rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –Toshkent , 1992

2. O`zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasining davlat haqida”gi Qonun.

3 O`zbekiaton Reapublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o`zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risidagi”

PF-6084 –son Farmoni.

4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni.

5.O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni “O`zbek tilining yangi qonunlari” – To`plam T;1998

6.Erkin Vohidovning So`z latofati, “O`zbekiston”nashriyoti -2014-yil.